

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

ZAMONAVIY QULLIKKA QARSHI BANDLIK SIYOSATI

2025

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati” to‘g‘risidagi Nizomi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son Farmoni, “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish hamda mehnatini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 330-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-yanvardagi 23-son Qarori ga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o‘rinlarda – JIDU deb yuritiladi)ning Bandlik siyosati tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalari JIDUda Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati (keyingi o‘rinlarda Bandlik siyosati deb yuritiladi) va uning umumiy asoslarini tartibga soladi.

3. Ushbu Nizom qoidalari JIDUning barcha professor-o‘qituvchilari, xodimlari, bakalavriat talabalari, magistratura talabalari, doktorantlari hamda bitiruvchilari uchun qo‘llaniladi.

4. JIDU adolatli, shaffof va izchil bandlik siyosati amaliyotiga amal qiladi. Ushbu siyosat strategiyalar, qonunchilik bazasi va ma’lumotlarni himoya qilish, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi.

5. JIDU bandlik siyosatida tenglik tarafdoridir. Talabalar, bitiruvchilar va doktorantlar shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari va yutuqlari asosida ixtiyoriy ularning bandligini ta’minlashga ko‘mak ko‘rsatadi.

2-bob. Ushbu nizomning maqsadi

6. Ushbu Nizomning maqsadi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti va uning faoliyat yo‘nalishi doirasida zamonaviy qullik, odam savdosi va bolalar mehnatini oldini olish va uni yumshatish bo‘yicha keng qamrovli siyosatni o‘rnatishdan iborat.

3-bob. Asosiy tushunchalar

universitetning bandlik siyosati – bu universitet tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida olib boriladigan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar yig‘indisidir;

bandlik – fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir;

talabalarning ijtimoiy ehtiyojmand toifalari – ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan talabalar;

ish bilan band bo‘lmagan talaba – haq to‘lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg‘ulotga ega bo‘lmagan talabalar;

talabaning bandligi – talabaning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir;

ish qidirayotgan talaba – ishga joylashishda ko‘mak olish uchun universitetning tegishli bo‘limiga murojaat qilgan va u yerda ish qidirayotgan talaba sifatida ro‘yxatga olingan talaba;

malakani baholash – talaba yoki ish izlovchi malakasining kasbiy standart talablariga muvofiqligini tasdiqlash tartib-taomili;

odam savdosi – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqacha majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish;

majburiy mehnat – biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo‘llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi. Jazo deganda jismoniy shaxsning ixtiyoriy roziligi mavjud bo‘lmagani holda, ushbu shaxsga nisbatan uni mehnat faoliyatini amalga oshirishga majbur qiladigan har qanday moddiy, jismoniy yoki ruhiy ta’sir choralarini qo‘llash yoki qo‘llash tahdidi tushuniladi;

haq to‘lanadigan jamoat ishlari – buyurtmachilar-ish beruvchilar: mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tadbirkorlik subyektlari, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan, qoida tariqasida, dastlabki kasbiy tayyorgarlikni talab qilmaydigan, ijtimoiy foydali yo‘nalishga ega bo‘lgan hamda ish

qidirayotgan talaba va bitiruvchilarning va ishsiz talabalarning vaqtincha bandligini ta’minlash uchun mahalliy mehnat organlari tomonidan beriladigan ishga joylashtirishga doir yo‘llanmalar bo‘yicha bajariladigan vaqtinchalik mehnat faoliyati turlari.

4-bob. Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosatining asosiy prinsiplari

7. Bandlik siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;
- talabalar bandligini universitet tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- shaffoflik va ochiqlik;
- ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o‘tishda ko‘maklashish;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta’minlash;
- kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta’minlash sharoitlaridagi tenglikning kafolati;
- majburiy mehnatni taqiqlash, ya’ni biron-bir jazo qo‘llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash.

5-bob. Bandlik siyosatini tartibga solish

8. JIDUning bandlik siyosatini olib borishdagi asosiy yo‘nalishlari va vazifalari:

- ish o‘rinlari tashkil etilishini rag‘batlantirish va talabalar bandligiga ko‘maklashish, shu jumladan ish o‘rinlarini tashkil etishga ko‘maklashish;
- oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta’minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- talabalar va bitiruvchilar bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish;
- talabalar bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash;
- ishga joylashtirish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish, talabaning ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- talabalar bandligi sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda

ishtirok etish;

- zamonaviy qullik, odam savdosi va bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilmasligi uchun barcha oqilona choralarni ko‘rish;
- professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarga aniq maslahat va yo‘l-yo‘riqlar berish, ularning ongli tanlov qilishlari va ularning qiziqishlari, akademik malakalari va salohiyatlariga mos keladigan dasturlarga murojaat qilishlari uchun ko‘maklashish;
- professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talabalarga maxsus o‘quv kurslari tashkil qilish va uni reja asosida o‘tkazib borish;
- universitet xodimlarga nisbatan har qanday jismoniy zo‘ravonlik, tahdid yoki ruhiy bosimni qat’iyan man qiladi;
- xodimlarga mehnat shartnomasi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishi kafolatlanadi.

6-bob. Nizom qoidalarini buzish yoki uni bajarmaslik

9. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda javobgar hisoblanadilar.

10. Universitet ixtiyoriy mehnat va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu nizom barcha xodimlar uchun xavfsiz va adolatli mehnat muhitini yaratish uchun asosdir.

11. Ushbu Nizom talablariga rioya qilmaslik yoki uni bajarmaslik intizomiy jazoga, shu jumladan mehnat yoki shartnoma munosabatlarini tugatishga olib kelishi mumkin.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

12. Mazkur Nizomning doimiy samaradorligini ta’minlash uchun u har yili qayta ko‘rib chiqilishi va unga o‘zgartirishlar kiritilib borilishi mumkin.

13. Mazkur Nizom rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.